



FORMATION OF THE FIELD OF PHALERISTICS: A RETROSPECTIVE VIEW

Jasurbek Karimjonov

PhD, Senior Lecturer

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: expert0almazniy@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Faleristics, order, medal, Europe, Central Asia, sign, badge.

Received: 22.12.24

Accepted: 24.12.24

Published: 26.12.24

Abstract: In this article, the formation and development processes of the field of phaleristics, award signs, were studied, and the appearance of the first phaleristic signs in the regions of Uzbekistan was analyzed.

FALERISTIKA SOHASINING SHAKLLANISHI: RETROSPEKTIV NAZAR

Jasurbek Karimjonov

PhD, katta o'qituvchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: expert0almazniy@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Faleristika, orden, medal, Yevropa, O'rta Osiyo, belgi, nishon.

Annotatsiya: Mazkur maqolada faleristika sohasi ya'ni mukofot belgilarining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari o'rganildi hamda O'zbekiston hududlarida dastlabki faleristik belgilar paydo bo'lishi tahlil qilindi.

СТАНОВЛЕНИЕ ОБЛАСТИ ФАЛЕРИСТИКИ: РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ ВЗГЛЯД

Жасурбек Каримжонов

PhD, старший преподаватель

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: expert0almazniy@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Фалеристика, orden, медаль, Европа, Средняя Азия, знак, кокарда.

Аннотация: В данной статье изучены процессы становления и развития области фалеристики, наградных знаков

Insoniyat tarixida davlatchilik an'alarining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi jarayonida o'ziga xos rag'batlantirish tizimi ham vujudga kelib, takomillashib borganini kuzatish mumkin. Dunyoda har bir davlatning o'z mukofotlash tizimi mavjud bo'lib, u bir necha ming yillar mobaynida shakllangan. Shu o'rinda qayd etish kerakki, mukofotlash tizimi orqali mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga hissa qo'shgan, turli sohalarda muvafaqqiyatlarga erishgan, kelajak avlodni vatanparvar etib tarbiyalashda xizmat ko'rsatgan insonlar taqdirlanib kelinadi.

Mukofotlash tizimining shakllanishi va rivojlanishi, mukofot belgilarining tuzilishi kabi masalalar "Faleristika" yo'nalishida o'rganiladi. Tarixda mukofot belgilarini o'rganish uzoq yillar mobaynida numizmatika fani tarkibida amalga oshirilgan. Medal, orden hamda nishonlarni tadqiq etish faleristika sohasi tarkibiga kiradi[1]. Faleristika sohasi qadimdan rivojlangan bo'lib, sohaviy jihatdan turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Ushbu soha dastlab Yevropa davlatlarida o'rganilgan bo'lib, insonlarni taqdirlash ishlari ham shu hududlarda birinchilardan amalga oshirilganligini aytish mumkin.

Aslini olganda, "Faleristika" tarixiy terminning kelib chiqishi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Jumladan, mil. avv. IV asr boshlarida "falera" atamasi ko'krakka taqiladigan harbiy nishon sifatida qo'llanilgan. Nishon aylana yoki oval shakldagi kumush va bronza metallardan yasilib, diametri 40-70 mm. ni tashkil etgan. Falera buyumlari, asosan, tilla qimmatbaho va kamyob toshlardan tayyorlangan. Shuningdek, toshlar o'rnida qadimgi davr uchun noyob bo'lgan yorqin, rangli shishalardan foydalanilgan. Qadimgi davr falera obyektlarining farqli jihati shundaki, ularda, asosan, ilohlar, afsonalar qahramonlari tasviri ko'proq qo'llanilgan. Ular yirik medalyonlar ko'rinishida bo'lib, unda Meduza Gargona yoki Marsning boshi yoxud hayvonlar, odatda sherlar tasviri tushirilgan. Shu sababli, turli sohalarda qahramonlik ko'rsatgan shaxslarni mukofotlash an'anasi uzoq o'tmishga borib taqaladi[2].

Faleristikaning fan sifatida to'la shakllanishi chexoslavakiyalik kolleksiyachi olim Oldri Pils nomi bilan bog'liq. U 1937-yilda "faleristika" atamasini fanga kiritdi, ammo tez orada boshlanib ketgan II jahon urushi bu atamaning keng yoyilishiga to'sqinlik qildi. Urushdan keyingi davrda faleristikaning rivojlanishi Germaniya Federativ Respublikasining "Ordenshunoslik" va Fransiyaning "Yevropaning orden va taqdirlash belgilarini kolleksiya qilish jurnali" nashrlari bilan bog'liq bo'ldi. Chex olimi V.Merjichkaning 1976-yilda nashr ettirgan "Faleristika" monografiyasi fanning nazariy va amaliy asoslarini belgilab bergan muhim asar hisoblanadi. Olim o'z asarida faleristikaning vazifasi va ahamiyatini aniq ko'rsatib, o'sha vaqtda

ilmiy adabiyotlarda ishlatilayotgan “ordenskunde” (ordenshunoslik) atamasining o‘rniga, O.Pils taklif etgan atamani qo‘llashni ma’qulladi. 1973-yilda rus lingvisti A.Superanskaya “faleronim” atamasini fanga kiritgan. Shu davrdan boshlab rus olimlari ham faleristikani chuqurroq o‘rganishni boshladi. XX asrning 80-90-yillarida bu sohada yana ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan edi[3].

Dunyo mamlakatlarida keng tarqalgan mukofotlardan biri bu ordenlardir[4] Orden (lotincha ordo – qator, daraja) metal nishon, taqdirlash belgisi, harbiy yoki fuqarolik xizmatlari uchun beriladigan faxriy mukofot hisoblanadi. Ordenlar dunyoda dastlab Rim katolik imperiyasi davrida rasm bo‘lgan Monax tashkiloti a‘zolariga, harbiylarga, boshqalardan ajralib turish uchun berilgan imtiyoz nishonasi vazifasini bajargan. Ordenning arabcha sinonimi “mukofot” deb atalgan va tarixda maxfiy xizmatlarni taqdirlash uchun hukmdorlar tomonidan topshiriladigan qimmatli nishon, belgi, ba‘zan nomi yozilgan xanjar (qilich), to‘pponcha, orden yoki pul mukofotidir. Sharq mamlakatlarida yer-mulk, uy-joy, saroy, hatto kanizaklar ham mukofot tariqasida berilgan. Ordenlar ilk bor o‘rta asrlarda, aniqrog‘i, Salib yurishlari davri (IX-XII asrlar)da paydo bo‘lgan. XIV asrda Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida sof dunyoviy ordenlarni ta‘sis etish davri boshlangan. XIV-XVIII asrlarda dunyoviy ordenlar negizida saroy ordenlari ham ta‘sis etilgan. Bu davrlarda ta‘sis etilgan Yevropa ordenlari qatoriga inglizlarning “Podvyazka”, “Andrey” va “Patrik”, fransuzlarning “Yulduz”, “Avliyo Gubert”, “Avliyo Mixail”, “Avliyo Karmelskaya” va “Avliyo Lazar”, “Avliyo Lyudovik”, daniyaliklarning “Fil”, ruslarning “Andrey Pervozvanniy”, ispanlarning “Montezskiy”, “Malta”, “Avliyo Ferdinand”, italiyaliklarning “Georgiy Konstantinovsk”, “Marin” va boshqa nomlardagi ordenlarni kiritish mumkin[5].

Mukofotlash tizimida medallarning o‘rni, ahamiyati hamda shakllanishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Medallarni paydo bo‘lishi qadimgi Rim davlati bilan bog‘liq. Medal tushunchasi Renessans davriga kelib G‘arbiy Yevropada mukofot shakli sifatida keng yoyilgan. Medal yasash XIV-XV asrlarda Italiyada san‘at darajasiga ko‘tarilgan. Medallar, asosan, oltin, kumush hamda bronzadan tayyorlangan bo‘lib, dastlabki medal Angliyada 1588-yilda Ispaniyaning Yengilmas armadasi ustidan erishilgan g‘alaba sharafiga qirolicha Yelizavetta I buyrug‘iga binoan xotira medali ko‘rinishida chiqarilgan. Mukofot medali esa 1650-yil Angliyada fuqarolar urushi davrida paydo bo‘lgan. Medal (lotincha “metallum” – metal-nishon, fransuzcha “medaille” – qalqon) biror voqea, arbob yoki joy sharafiga chiqariladigan, odatda ikki tomoniga tasvir tushirilgan va yozuvi bo‘lgan, ko‘pincha doira, tuxumsimon yoki ko‘pburchakli shakldagi, har xil o‘lchovli metal nishondir. Medal davlat va jamoatchilik mukofoti sifatida alohida xizmatlar, mardlik, fan, madaniyat, sport sohasidagi katta yutuqlar

uchun, yubiley sanalari munosabati bilan esdalik uchun, biron-bir voqeada ishtirok etganlik uchun beriladi[6].

O'rta Osiyoga dastlabki faleristik belgilar, ya'ni orden va medallarning kirib kelishi va shakllanishi bevosita rus harbiy harakatlari bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Rossiya imperiyasi davrida yaratilgan orden va medallar, rus hukumatining O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlarini tasdiqlaydigan "Xiva yurishlari uchun" (1873-yil), "Qo'qon xonligini bosib olinishi uchun" (1875–1876-yillar), "Ko'ktepani bosib olinishi uchun" (1881-yil), "O'rta Osiyodagi yurishlar uchun" nomlari bilan atalganligini kuzatish mumkin. 1873-yilda rus podshosi Aleksandr I buyrug'i bilan Xivani egallashdagi xizmatlari uchun naqd 14 ming dona medal zarb etilgan. 1883–1917-yillarda Xiva xonlari Muhammad Rahimxon II (Feruz), Asfandiyorxon, Islom Xo'ja kabi umumiy hisobda 20 kishi Rossiya hukumatining orden, medal va harbiy unvonlari bilan taqdirlangan. O'lkada faoliyat olib borgan rus amaldori, rahbar va vakillariga, asosan, hukumatning oliy darajadagi mukofotlari "Anna", "Stanislav", "Vladimir" ordenlari taqdim etib borilgan.

Mukofotlarning oliy shakli sifatida e'tirof etilgan orden hamda medallardan iborat dastlabki faleristik belgilar bizni hududlarimizda dastlab Buxoro amirligida XIX asrning 80-yillaridan boshlab ta'sis etila boshlangan. Buxoro amirligida dastlabki tashkil etilgan mukofot belgisi Buxoro yulduzi ordeni hisoblanadi. Ikkinchi ta'sis etilgan "Buxoro toji ("Корона Бухары")" ordeni 1890-yillarda Buxoro amiri Abdulahadxon farmoni bilan yaratilgan. 1898-yilda amirlikda imperator Aleksandr III xotirasiga bag'ishlab uchinchi, oliy "Iskandar quyoshi" ("Солнце Александра", "Искандер Салис") ordeni ta'sis etilgan. Manbalarda qayd etilishicha, amirlikdagi uchinchi ta'sis etilgan "Iskandar quyoshi" ordeni eng oliy mukofot sanalgan. Buxoro amiri orden bilan rus hukumatining yuqori mansabli kishilari va harbiy generallarni mukofotlagan[7].

O'zbekistonda faleristik belgilar kolleksiyasi bilan shug'ullangan o'lkashunos, ofitser, kolleksioner Abdufarrux Mirzairovdir. Otasi Ubaydulla Mirzairov Katta Farg'ona kanali qurilishi boshqaruvchisi, Stalingrad ostonasidagi jang ishtirokchisi, Kengsberg jangi podpolkovnigi bo'lib, general Sobir Raximov bilan yaxshi munosabat o'rnatgan shaxs edi. A.Mirzairovning mukofotlar hamda turli nishonlarga qiziqishi va ularni o'rganishda otasining o'rni katta bo'lgan. Jumladan, 1957-yil yoshlar va talabalar Xalqaro festivalida A.Mirzairovning otasi bilan ishtirok etishi uning bu kasbga bo'lgan qiziqishi va intilishiga sabab bo'lgan. Kolleksioner vatanimiz hududining o'tgan asrlardagi mukofot nishonlarini o'rganishga astoydil kirishgan. A.Mirzairov o'n besh mingdan ortiq nishonlarni jamlagan. O'z kolleksionerlari bo'lgan boshqa MDH davlatlari kabi O'zbekistonda ham faqatgina A.Mirzairov kolleksiya

to'plamida o'zbek davlatchiligiga tegishli mukofotlar jamlangan. A.Mirzairov tomonidan to'plangan kolleksiya Toshkentdagi Ishchilar shaharchasida joylashgan shaxsiy uyida saqlanadi. Kolleksioner jamlanmasida o'tgan asrning mukofotlari va lavozim belgilari ham mavjud. Ular orasida 1881-yilda Buxoro amiri Muzaffar tomonidan ta'sis etilgan birinchi o'zbek mukofoti "Muqaddas Yulduz" ("Восходящей Звезды") ordeni ham o'rin egallagan. Faleristika mutaxassislari A.Mirzairov kolleksiyasini o'z yo'nalishida yagona bo'lgan Turkiston o'lkasi, O'zbekistonning turli tarixiy bosqichlarini ochib beruvchi xalqaro ahamiyatga ega kolleksiya sifatida e'tirof etadilar. Mustahkam ilmiy yondashuv hamda kolleksiyani jamlashning tizimliliigi A.Mirzairovni faleristikaning mahoratli mutaxassisiga aylantirgan. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda mukofot tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. A.Mirzairov va boshqa falerist kolleksionerlarning noyob jamlanmalaridan olingan materiallar va faleristika qonunlarini o'rganish bo'yicha ko'p yillik tajribaga asoslanib, yangilanayotgan O'zbekistonning milliy mukofot belgilarini ta'sis etishda foydalanish mumkin[8].

Tahlillar shundan dalolat beradiki, mukofotlash tizimi qadimdan rivojlangan bo'lib, medal, orden hamda nishonlarni o'rganish faleristika tarkibiga kirgan. Faleristika tarixiy terminning kelib chiqishi qadimiy davrlarga oid bo'lib, jumladan, miloddan avvalgi IV asr boshlarida "falera" atamasi ko'krakka taqiladigan harbiy nishon sifatida qo'llanilgan. O'zbekiston hududida dastlabki faleristik belgilarning paydo bo'lishi Rossiya imperiyasining kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, ungacha bo'lgan davrda mukofotlash va taqdirlash ishlarida faleristik belgilardan foydalanilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саидбобоев З. Чориев Ш. Махсус тарихий фанлар асослари. – Тошкент: Университет, 2017. – Б. 38.
2. Абдуллаев Д. Ўзбекистонда мукофотлаш тизимининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. DSc дисс... – Тошкент, 2022. – Б. 22-23.
3. Во'ronov J. Faleristika tarixidan (mukofot nishonlari tarixi). / Risola. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – B. 5-6.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. – Тошкент, 2003. – Б. 560.
5. Абдуллаев Д. Ўзбекистонда мукофотлаш тизимининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари / Монография. – Тошкент: Bookmanу print, 2022. – Б. 16-17.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. – Тошкент, 2003. – Б. 568.
7. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 18.
8. Абдуллаев Д. Ўзбекистонда мукофотлаш тизимининг шаклланиши ва

ривожланиш босқичлари / Монография. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 20-21.

9. Makhmutaliyevich, K. M., Qudratovich, A. O., Mukhtorjonovich, K. J., Makhmutaliyevich, K. I., & Abdullayevich, Y. A. (2020). October revolution and its influence in Socio-political life of Turkestan at the beginning of the 20th century. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 115-120.

10. Mukhtorjonovich, K. J. (2021). Creation of the legal basis of state awards in independent Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2031-2037.

11. Muxtorjonovich, K. J. (2021). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ORDENLARINING TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 536-543.